

## GAYMORIT KASALLIGI VA UNI DAVOLASH YO'LLARI

**Sh.Yusufova**

*Central Asian Medicval University talabasi,*

*Ilmiy raxbar*

**Z.Komilov**

*Central Asian Medicval University o'qituvchisi.*

Gaymorit – yuqori jag` suyagi bo`shtlig`i (Gaymor bo`shtlig`i) shilliq qavatining yallig`lanishi. Kechishiga ko`ra o`tkir, o`rtacha o`tkir va surunkali xillari farq qilinadi. Shamollah, gripp, tumov va b. infektion kasalliklar, shuningdek burun bo`shtlig`i va chirigan tishdan yallig`lanish jarayonlarining Gaymor bo`shtlig`iga tarqalishi, ba`zan yuqori jag` suyagining shikastlanishi sabab bo`ladi. O`tkir Gaymoritni vaqtida davolamaslik yoki chala davolash, ba`zan allergiya oqibatida surunkali Gaymorit ro`y berishi mumkin. Gaymoritda bemorning darmoni quriydi, eti uvishadi, yonoqlari shishadi, harorati ko`tariladi, yuqori jag`i va boshi og`riydi, boshini burganda og`riq zo`rayib, burni bitadi; ko`pincha burunning bir tomonidan yiring (yiringli Gaymorit) yoki shilimshiq (kataral Gaymorit) oqadi, burundan nafas olish qiyinlashadi. Yarim o`tkir va surunkali Gaymoritda kasallik alomatlari birmuncha sust namoyon bo`ladi. Surunkali Gaymorit ba`zan yashirin kechib, sepsis, meningit, bosh miya abssessi va b. jiddiy asoratlar avj olishi mumkin. Gaymoritning oldini olish uchun organizmni chiniqtirish, sport bilan shug`ullanish, sof havo va suv muolajalaridan bahramand bo`lish, shuningdek tumov, tish chirishi va b. kasalliklarni o`z vaqtida davolatish kerak. O`tkir Gaymoritda turli dori-darmonlar buyuriladi, surunkalida ko`pincha jarrohlik usuli qo`llaniladi. Bundan tashqari, yana bir necha omillar gaymoritni keltirib chiqarishi mumkin.

Jumladan:

- allergik xastaliklar;
- yuqori jag` tishlari kasalliklari;
- rinit (burun yo`llari shilliq qavati shamollashi) bilan kechuvchi allergik reaksiyalar;
- burun bo`shtlig`ining anatomik xususiyatlari;
- immunitetning pastligi;
- adenoidlarning haddan ortiq o`sishi yoki poliplarning shakllanishi;
- sil kasalligi va neoplazmalar;
- surunkali infeksiyalar – faringit (halqum shamollashi), tonsillit va hokazo.

Gaymoritga chalingan bemorlarda qanday belgilar kuzatiladi?

Odatda ushbu kasallik bilan og`riyotgan bemorda peshona, ko`z atroflari va burun yon tomonlari va jag` qismida qattiq og`riq kuzatiladi. Ayniqsa, pastga egilganda og`riq yanada kuchayadi.

Shuningdek, u burundan nafas olishdagi muammolar, yallig`langan sinuslar sohasidagi shishlar, hid bilmaslik, uyquning buzilishi, kechasi va ertalab kuchayadigan quruq refleksli yo`tal, burundan yiring oqishi, doimiy bosh og`rig`i hamda tana haroratining ko`tarilishi ushbu kasallikning asosiy belgilari hisoblanishini aytadi.

Ba'zilar har tongda iliq vanna qabul qilishni xush ko`radi. Ayrimlar esa ertalab sochini yuvib ishga yoki o`qishga borishga odatlangan. Biroq qishning sovuq kunlarida sochni quritmasdan yoki yupun kiyingan holda ko`chaga chiqish nafas yo`llari kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

"Gaymorit – paranazal (burun yon, yuqori jag` bo`shlig`i) sinus shilliq qavatining juda keng tarqalgan yallig`lanish kasalligi bo`lib, odadta ularda yiringli sekresiyalar to`planadi. Shuni aytish kerakki, burun va paranasal sinus kasalliklari yuqori nafas yo`llarining eng keng tarqalgan patologiyasi hisoblanadi. Uning kechishi og`irligiga qarab, o`tkir va surunkali turlarga bo`linadi. Gaymorit ko`pincha kuz-qish davrida, inson tanasi zaiflashganda va kasallikni qo`zg`atuvchi bakteriyalarga qarshi tura olmaganida aniqlanadi. Ushbu kasallik bog`cha yoshidagi bolalarda uchramaydi. Chunki kichkintoylarda 7-8 yoshga kelibgina gaymor bo`shlig`i hosil bo`ladi. Bu xastalik asosan o`smir yoshidagi yigit-qizlarda va 30-50 yosh atrofidagi insonlarda kuzatiladi", -deydi shifokor.

Qayd etilishicha, kasallik ko`pincha gaymorit takroriy va uzoq muddatli burun oqishi va sovuq qotishdan keyin rivojlanadi. Burun bo`shlig`iga kirgan gripp virusi, O`RVI infeksiyalari, ko`k yiring tayoqchalari kasallikni qo`zg`atadi.

Gaymorit – juda ko`p muammolarga olib keladigan kasalliklardan biri. Bu tashxis bilan tanish bo`lgan har bir kishi gaymoritni davolash qiyinligini biladi va surunkali shaklda u doimiy alomatlardan charchaydi. Uy sharoitida gaymoritni qanday davolash mumkin va bemorlarga qanday yordam berish kerak?

Agar gaymorit tashxisi qo`yilsa, uzoq muddatli davolanishga tayyor bo`lish lozim. Shuningdek, shifokor retseptlaridan tashqari xalq tabobatidan ham foydalanish mumkin. Ular burunda yallig`lanishni kamaytirishga yordam beradi.

Gaymoritni tabiy yo`l bilan davolash.

Yuvish. Agar burunning oqishi va og`riq qiynasa, an'anaviy tibbiyat burunni kuniga bir necha marta yuvishni maslahat beradi. Yechim sifatida dorixonada sotiladigan maxsus fiziologik spreylardan, shuningdek, oddiy suv va dengiz tuzi bilan eritmadan foydalanish mumkin. Yuvayotganda ehtiyot bo`lish lozim, agar jarayon noto`g`ri amalga oshirilsa, qulooqqa suv kirsa, eshitish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Yuvish uchun propolis yoki siklamen ekstraktlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu vositalar yallig`lanishni ham yengillashtiradi. Lekin ular antibiotiklar yoki shifokor buyurgan boshqa dori-darmonlarning o`rnini bosmaydi.

Isitish. Agar gaymoritda isitma yoki yiring to`plangan bo`lsa, isitish amaliyoti tavsiya etilmaydi. Bu odadta burundagi kuchli og`riqlar bilan kuzatiladi. Boshqa hollarda, quruq issiqlik qisqa muddatli isitish uchun ishlatilishi mumkin. Lekin me'yorni oshirmaslik zarur. Quruq issiqlik sifatida mato bilan o`ralgan qaynatilgan tuxum, bir xalta qizdirilgan tuzni ishlatish mumkin.

Burunga tomchi quyish. Agar yuvish va isitish protseduralari mumkin bo`lmasa, tomchilar to`g`ridan to`g`ri burunga, yallig`lanish markaziga tushadi. Shuning uchun tomchilatish juda samarali hisoblanadi. Masalan, choy daraxti yog'i yoki mentol yog'ini har burun teshigiga 2-3 tomchi tomizish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, bu tomchilarda burunlarning tashqi, peshona va chakkani moylash mumkin. Agar kalanxoe o'ssa, bargidan

sharbat chiqarib olingandan so‘ng 2-3 tomchi tomizish kerak. Bu o‘simplik shiddatli aksirishga olib keladi va shu bilan burun yo‘llaridan balg‘amni tozalaydi.

Ichimlik rejimi. Shuni unutmaslik kerakki, gaymoritda shilliq qavatni doimo suyultirib turish lozim, shundagina bo‘shliqda ajralmalar to‘planib qolmaydi. Buning uchun ko‘proq suyuqlik ichish kerak. Oddiy choy o‘rniga limon sharbati, klyukvali mors yoki boshqa o‘simplikdan tayyorlangan ichimliklarni ichish mumkin. Uyda deyarli barcha mevalarda mors, kompot, sharbatlar — bularning barchasi infeksiyaga qarshi kurashishga va burun bo‘shlig‘ini tozalashga yordam beradi.

Ingalyatsiya. Issiq havoni efir moylari yoki o‘simplik damlamalari bilan ingalyatsiya qilish ham kasallikka qarshi kurashda yordam beradi. Ingalyatsiya uchun ko‘plab efir moylarini ishlatish, shuningdek, propolis damlamasi, quruq mentol, lavanta ekstraktini suvga qo‘sish mumkin. Shuningdek, kartoshkani qaynatib, qozon ustida issiq bug‘ bilan nafas olish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Козлов В.С., Шиленков А.А., Жуков С.К. Лечение рецидива синусита после эндоназальной хирургии с помощью синус-катетера «ЯМИК-5» // Российская ринология. - 1994. - Приложение 2. - С. 49-50.
2. Лопатин А.С., Быкова В.П., Арцыбашева М.В. Современные принципы диагностики и лечения хоанальных полипов // Вестник оториноларингологии. - 1997. - № 1. - С. 8-12.
3. Лопатин А.С., Пискунов Г.З., Горячкина Л.А. и др. Ведение пред- и послеоперационного периодов при функциональных внутриносовых хирургических вмешательствах: Учебное пособие. - М., 1998. - 12 с.
4. Пальчун В.Т. Противоречивая лечебная тактика при ряде основных заболеваний ЛОР-органов (опыт ЛОР-клиники РГМУ) // Вестник оториноларингологии. Материалы Российской конференции оториноларингологов (19-20 ноября 2002). - М., 2002. - С. 16-22.
5. Пискунов С.З. О хирургическом лечении хоанальных полипов // Труды XV съезда оториноларингологов России. - СПб., 1995. - Т. 2. - С. 87-90.